



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

LOYIHA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHLTLARI

Qulmatova Xurshida Abdurahmonovna
“University of Economics and Pedagogy”, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada loyiha texnologiyasi asosida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning psixologik-pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda loyiha texnologiyasining pedagogik ta‘lim tizimidagi o‘rni, uning bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati hamda innovatsion ta‘lim texnologiyalari asosida metodik tayyorgarlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, loyiha faoliyati orqali talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy yondashuv hamda kasbiy refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari loyiha texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni bo‘lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini samarali rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: loyiha texnologiyasi, kasbiy tayyorgarlik, metodik kompetensiya, pedagogik innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyat.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТНОЙ ТЕХНОЛОГИИ

Кулматова Хуршида Абдурахмоновна
«University of Economics and Pedagogy», преподаватель

Аннотация

В данной статье рассматриваются психолого-педагогические аспекты совершенствования профессионально-методической подготовки будущих педагогов на основе проектной технологии. Анализируется роль проектной технологии в системе педагогического образования и её значение в формировании профессиональных компетенций будущих учителей. Особое внимание уделяется развитию у студентов самостоятельного мышления, творческой активности и профессиональной рефлексии в процессе проектной деятельности.

Ключевые слова: проектная технология, профессиональная подготовка, педагогическое образование, инновационные технологии, компетентный подход.

IMPROVING THE PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS BASED ON PROJECT TECHNOLOGY: PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS

Кулматова Хуршида Абдурахмоновна
«University of Economics and Pedagogy», преподаватель

Abstract

This article analyzes the psychological and pedagogical aspects of improving the professional and methodological training of future teachers based on project technology. The study examines the role of project technology in the system of pedagogical education and its importance

in developing the professional competencies of future teachers. The article highlights the pedagogical conditions for developing students' independent thinking, creativity, and professional reflection through project-based learning. The results show that the use of project technology contributes to the effective formation of professional and methodological competencies of future teachers.

Keywords: project technology, professional training, pedagogical education, innovative technologies, competence-based approach, methodological competence.

Zamonaviy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan muhim vazifalardan biri bo'lajak pedagoglarni yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislar sifatida tayyorlashdir. Bu jarayonda pedagogik ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish hamda talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ularning pedagogik faoliyatga tayyorligini oshiradi [3, 52–55-b.]. Shu nuqtai nazardan, loyiha texnologiyasi talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda ijodiy faoliyatini faollashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Hozirgi vaqtda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Jumladan, metodik tayyorgarlikning amaliy yo'naltirilganligini ta'minlash, talabalarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish hamda ta'lim jarayonida faol metodlardan yetarli darajada foydalanilmayotgani muhim muammolar sirasiga kiradi [6, 44–48-b.]. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik ta'lim jarayonida loyiha texnologiyasidan tizimli foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi [7, 61–64-b.].

Tadqiqotning maqsadi loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: loyiha texnologiyasining pedagogik mohiyatini aniqlash; bo'lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish omillarini tahlil qilish; loyiha texnologiyasi asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash.

Adabiyotlar tahlili

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi pedagogika va pedagogik psixologiya fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganib kelinmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini shakllantirish hamda ijodiy faoliyatga tayyorlash muammosi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalasi ilmiy adabiyotlarda turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, loyiha texnologiyasi ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ijodiy faoliyatni rag'batlantirishda samarali pedagogik texnologiya sifatida e'tirof etiladi. Ushbu texnologiya talabalarni real muammolarni tahlil qilish, amaliy yechimlar ishlab chiqish hamda jamoaviy faoliyatni tashkil etish jarayoniga faol jalb etish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda loyiha texnologiyasining nazariy asoslari va pedagogik imkoniyatlari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, B. Shermuhammadov, Sh. Samiyeva, B. Xodjayev, M. Dehqonova, A. Xolbo'tayev kabi olimlarning ilmiy ishlarida

pedagogik loyihalashning nazariy asoslari, ta'lim jarayonini loyihalash metodologiyasi hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalalari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida pedagogik loyihalash ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish va pedagogik jarayonni optimallashtirishning muhim vositasi sifatida talqin qilinadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish masalalari milliy pedagogika ilmidagi ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, N. Jamilova, B. Adizov, Sh. Mardonov, Sh. Jo'rayev, M. Kadirova kabi olimlar tomonidan talabalarda kasbiy va ijtimoiy faollikni rivojlantirish, pedagogik tafakkurni shakllantirish hamda ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish masalalari o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida pedagogik tayyorgarlik jarayoni shaxsning ma'naviy, axloqiy, estetik va kasbiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari tomonidan ham loyiha texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari keng o'rganilgan. Xususan, B. Ananyev, A. Asmolov, L. Bojovich, V. Radionova, E. Zair-Bek, V. Baydenko, Y. Polat, V. Bepalko, V. Monaxov, G. Ilin kabi tadqiqotchilar ta'lim jarayonida loyiha faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari, uning shaxs rivojlanishiga ta'siri hamda innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan bog'liqligini o'rganganlar. Ularning tadqiqotlarida loyiha texnologiyasi talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil bilim olish faoliyatini faollashtirish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositasi sifatida baholanadi.

Xorijiy pedagogika ilmidagi ham loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, J. Dewey, B. Barron, C. Larmer, T. Markham, E. Blumenfeld, T. Ehrlich, K. Zeichner va boshqa olimlar tomonidan loyiha asosidagi ta'lim (Project-Based Learning) metodologiyasi ishlab chiqilgan. Ularning ilmiy ishlarida loyiha texnologiyasi talabalarning amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bilimlarini shakllantirish, ijtimoiy faollik va tashabbuskorlikni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik texnologiya sifatida baholanadi.

Shuningdek, pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan loyiha faoliyati talabalarning motivatsiyasi, ijodiy tafakkuri, refleksiv faoliyati hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, loyiha texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ijodiy yondashuv asosida yechim topish hamda o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa bo'lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, loyiha texnologiyasi ta'lim jarayonida talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Biroq mavjud tadqiqotlarda loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak pedagoglarning aynan kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari yetarli darajada kompleks tarzda o'rganilmagan. Shu sababli mazkur muammoni ilmiy asosda tadqiq etish va loyiha texnologiyasi asosida pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning samarali modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot jarayonida loyiha texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining bo'lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligiga ta'sirini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba-sinov jarayonida talabalarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligi, metodik kompetensiyalari, mustaqil fikrlash darajasi hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlari o'rganildi. Mazkur jarayonda loyiha texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlar, seminar-treninglar, kichik guruhli loyiha ishlari hamda muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar qo'llanildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini baholash

uchun bir qator mezonlar ishlab chiqildi. Ular orasida mustaqil fikrlash qobiliyati, metodik kompetensiya darajasi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va hal qilish ko'nikmalari hamda ijodiy faoliyatni amalga oshirish darajasi asosiy ko'rsatkichlar sifatida belgilandi. Ushbu ko'rsatkichlar tajriba boshida va tajriba yakunida qiyosiy tahlil asosida o'rganildi.

1-jadval

Tajriba-sinov ishlari natijalari

Ko'rsatkich	Tajriba boshida (%)	Tajriba oxirida (%)
Mustaqil fikrlash	48	72
Metodik kompetensiya	42	70
Muammoli vaziyatlarni hal qilish	45	68
Ijodiy faoliyat	50	75

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, loyiha texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, tajriba yakunida talabalarning mustaqil fikrlash ko'rsatkichi 48 foizdan 72 foizga oshgan bo'lib, bu ularning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati sezilarli darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, metodik kompetensiya darajasining 42 foizdan 70 foizga oshgani loyiha asosidagi mashg'ulotlar talabalarning pedagogik faoliyatni rejalashtirish, ta'lim metodlarini tanlash hamda dars jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lganini ko'rsatadi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'rsatkichi ham 45 foizdan 68 foizga oshgan bo'lib, bu loyiha faoliyati jarayonida talabalar real pedagogik muammolarni tahlil qilish, muqobil yechimlar ishlab chiqish hamda jamoaviy hamkorlik asosida qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirganini tasdiqlaydi.

Tajriba natijalariga ko'ra, talabalarning ijodiy faoliyat darajasi ham sezilarli ravishda oshgan. Mazkur ko'rsatkich tajriba boshida 50 foizni tashkil etgan bo'lsa, tajriba yakunida 75 foizga yetgan. Bu natija loyiha texnologiyasi talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish hamda yangi pedagogik yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari loyiha texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishi, ularning kasbiy motivatsiyasini oshirishi hamda pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini rivojlantirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, loyiha faoliyati jarayonida talabalarning mustaqil izlanish olib borishi, ilmiy axborotlarni tahlil qilishi va amaliy yechimlar ishlab chiqishi ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, loyiha texnologiyasi talabalarda jamoaviy hamkorlik, muloqot madaniyati, liderlik qobiliyati hamda o'z faoliyatini refleksiya qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Natijada bo'lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlar asosida, balki amaliy faoliyat orqali ham shakllanadi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari loyiha texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Ushbu texnologiyani ta'lim jarayoniga keng joriy etish pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, loyiha texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur texnologiya talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, metodik kompetensiyalarini shakllantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish hamda ijodiy faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov natijalari loyiha asosidagi ta'lim talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirganini hamda ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini

mustahkamlashda samarali ekanligini tasdiqladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida loyiha texnologiyasidan keng foydalanish ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B. 160.
2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – B. 304.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – B. 208.
4. Xodjayev B. X. Pedagogik aksiologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 168.
5. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – B. 240.
6. Qodirov B. Tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 220.
7. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – B. 240.
8. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan Company, 1938. – P. 116.
9. Barron B., Darling-Hammond L. Teaching for meaningful learning: A review of research on inquiry-based and cooperative learning. – San Francisco: Jossey-Bass, 2008. – P. 45.
10. Blumenfeld P. C., Soloway E., Marx R. W., Krajcik J. S., Guzdial M., Palincsar A. Motivating project-based learning: Sustaining the doing, supporting the learning // Educational Psychologist. – 1991. – P. 369–398.
11. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2008. – С. 272.
12. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – С. 192.